

ADVOKATLARNING IJTIMOY HIMOYASI TUSHUNCHASI, AHAMIYATI

Bunyodov Shaxzodbek Zuryod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

bunyodovshahzodbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16026620>

Advokatlik kasbi o'zining o'ta murakkab va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli faoliyat turi hisoblanadi. Advokatlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda bevosita ishtirok etadi. Shu bois, advokatlarning mehnatini munosib qadrlash, ularning mehnat faoliyatida huquqiy va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanishi nafaqat kasbiy faoliyat samaradorligini oshiradi, balki umuman olganda, fuqarolarning adolatli sud himoyasiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Olimlar tomonidan "advokatning ijtimoiy himoyasi" tushunchasiga ta'rif berishda turli yondashuvlar qo'llaniladi. Xususan, B.Salomov "Advokatni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilish – advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda yetkazilgan shikastlanish oqibatida o'z kasbiy faoliyatini to'liq yoki qisman davom ettira olmasa yoki shu munosabat bilan vafot etganda, advokatga yoki uning merosxo'rlariga davlat tomonidan ma'lum miqdordagi tovon pul to'lashda namoyon bo'ladi", deb ta'kidlagan¹.

Ba'zi ilmiy izlanuvchilar esa² fikriga ko'ra esa advokatlar o'zini o'zi ish bilan mustaqil ta'minlovchi shaxslar sifatida majburiy pensiya sug'urtasidan o'tkazilishi lozim. Shu munosabat bilan ular yoshga doir, nogironlik bo'yicha sug'urta pensiyalari, jamg'arib boriladigan pensiyalarni olish huquqiga ega. Advokatning mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik uchun sug'urta nafaqalari tayinlanadi. Demak, advokatning ijtimoiy himoyasi nafaqat advokat tomonidan o'zining kasbiy vazifalarini bajarish chog'ida sog'lig'iga yetkazilgan zararlar o'rnini qoplashda, balki, advokatning yoshga doir pensiya olish huquqini ham ifodalaydi.

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonuning 10-moddasiga ko'ra advokatning sog'lig'i va hayoti davlat himoyasida ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunga ko'ra "Advokat davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha barcha nafaqa turlarini olish huquqidan foydalanadi. Davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda to'lanadi.

Advokatga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar belgilash va to'lash, uning davlat pensiya ta'minoti va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi".

Shuni ta'kidlash joizki, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun hamda "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda "advokatning ijtimoiy himoyasi" tushunchasiga to'liq va aniq tarif berilmasdan, balki umumiy tarifdan foydalanilgan deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, advokatning davlat tomonidan ijtimoiy himoyasi advokat faoliyatini

¹ B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Dissertatsiya. Y.f.d ilmiy daraja olish uchun – M.: Toshkent – 2005

² И.Н. Лаврова. СОЦИАЛЬНЫЕ ПРАВА И ГАРАНТИИ АДВОКАТА. Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» №7/2020.

moliyaviy va huquqiy jihatlarini o'zida aks ettirishi hamda advokatlarning huquqiy va axborot kommunikatsiyalar borasidagi bilimlarini mustahkamlash va oshirish uchun ularning malakasini kuchaytirishga xizmat qilishi lozim.

Yuqoridagi olimlar fikrini hamda shaxsiy fikrlarni umumlashtirgan holda advokatning ijtimoiy himoyasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: "Advokatlarning ijtimoiy himoyasi tushunchasi – bu advokatlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda ularning hayoti, sog'ligi, moddiy ta'minoti, ijtimoiy barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir".

Advokatlik faoliyati o'zining mustaqil va erkin mohiyatiga ega bo'lsa-da, uni samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy shart-sharoitlar va infratuzilma bilan ta'minlash davlat va advokatura birlashmalari zimmasidagi muhim ijtimoiy majburiyatdir. Moddiy ta'minot – bu advokatning kasbiy faoliyatini bema'lol olib borishi, hayotiy ehtiyojlarini qondirishi va kasbga sadoqatli bo'lib qolishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy vosita va imkoniyatlar majmuasi hisoblanadi. Advokat faoliyatini moddiy tarafdin himoya qilish bu bevosita advokat faoliyatini sug'urta qilish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish hamda advokatlarning uchun moliyaviy rag'batlantirish tizimlarini joriy etishda namoyon bo'ladi.

Advokatlar palatasi advokatlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilishda ularning nomidan rasmiy murojaatlar kiritish, davlat organlari va sudlar bilan munosabatlarda ularni vakillik qilish vakolatiga egadir. Bu advokatlarning sud jarayonlarida, tergov organlari oldida yoki boshqa davlat tuzilmalarida uchraydigan muammolari yuzasidan institut sifatida ishtirok etish imkonini beradi. Palata, advokatlar faoliyatiga noqonuniy aralashuvlar, tazyiq, ta'qib va tahdidlar yuzaga kelganda, bu holatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish va tegishli organlar oldida advokatni himoya qilish choralarini ko'radi. Bu jarayon fuqarolarning himoyasini ta'minlayotgan advokat shaxsining daxlsizligini kafolatlash uchun muhimdir.

Endigi navbatda advokatlar ijtimoiy himoya qilish sohasidagi muammolarga e'tiborimizni qaratsak. Statistik ma'lumotlarga qaraganda advokatlar tomonidan Himoya ostidagi shaxslar bilan uchrashish uchun maxsus xonalar mavjud emasligi yuzasidan 600 ga yaqin advokat e'tirozi qayd etilgan bo'lsada, amalda respublikaning tergov hibsonalari va yopiq turdagi jazoni ijro etish muassasalarining har birida maxsus advokat xonalar (32 ta muassasada 69 ta advokat xonasi) ajratilgan. Shuningdek, X.V.Davlyatov tomonidan advokatlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, "Advokatlarga advokaturaning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining bugungi kundagi faoliyatini qanday baholaysiz?" degan savolga so'rovnomada ishtirok etgan advokatlarning 38.5 foizi "yaxshi", 48.5 foizi "qoniqarli" hamda 9.6 foizi "qoniqarsiz" deb javob bergan. Bundan advokatlarda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasiga nisbatan ijobiy fikr shakllanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi kasbiy faoliyatingizda ko'proq qaysi organ sifatida namoyon bo'lmoqda?" degan savolga so'rovnomada qatnashgan advokatlarning 43.6 foizi "advokatlarni kasbiy va ijtimoiy himoya qiluvchi", 37 foizi "advokatlarni kasbiy birlashtiruvchi", 23 foizi "advokatlarni nazorat qiluvchi", 14.5 foizi "advokatlarni jazolovchi" ko'rishlarini javob variantida belgilashgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, umumiy holatda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining advokatlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi faoliyati advokatlar tomonidan

ijboiy baholanadi, deyishimiz mumkin.

Advokatlarning ijtimoiy himoyasini yaxshilash uchun davlat va advokatura tashkilotlari o'rtasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish, advokatlarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilishda eng ilg'or yondashuvlarni joriy etish kerak. Shu tariqa, advokatlarning ijtimoiy himoyasi nafaqat ularning professional rivojlanishini, balki butun huquqiy tizimning ishonchliligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Dissertatsiya. Y.f.d ilmiy daraja olish uchun – M.: Toshkent – 2005
2. И.Н. Лаврова. СОЦИАЛЬНЫЕ ПРАВА И ГАРАНТИИ АДВОКАТА. Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» №7/2020.
3. O'zbekiston Respublikasining 27.12.1996-yildagi 349-I-son "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 25.12.1998-yildagi 721-I-son "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni.